Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Irismatovich	
Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun'iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to'siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No'monjon Isroilovich	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O'tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko'rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodakhon Abdulla kizi	
O'zbekistonda hayot sug'urtasining joriy etilishi va unga ta'sir etuvchi demografik omillar ta'siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o'zgarishining turizm sektoriga ta'siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o'zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta'siri	1439
Baratov Sa'dulla Norjigit o'g'li, Jo'rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta'minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o'g'li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o'g'li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug'urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	



Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafuz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'рни.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	



“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda xalqaro hamkorlik: O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar	1714
Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turoпова Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar:	
O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	



BARQAROR RIVOJLANISH VA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI

Maksudova Shaxzoda

“International school of finance and technology and science” instituti

Menejment kafedra o'qituvchisi

Email: sh.makhsudova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga bag'ishlangan. Unda barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillari, moliyaviy hisobotning xalqaro tizimlari, xususan Xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlari (IFRS) hamda barqaror rivojlanishning moliyaviy hisobotlar bilan integratsiyasi haqida so'z boradi. Maqolada barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda moliyaviy hisobotlarda ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini yaxshiroq tushunish va ifodalash uchun xalqaro moliyaviy hisobot tizimining shaffofligi va integratsiyalashgan yondashuvi zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, IFRS, ekologik omillar, ijtimoiy mas'uliyat, integratsiya, shaffoflik, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract: This article is dedicated to the topic of sustainable development and international financial reporting standards. It discusses the key principles of sustainable development, international financial reporting systems, particularly the International Financial Reporting Standards (IFRS), and the integration of sustainable development with financial reporting. The article emphasizes the need to account for environmental and social factors in financial reporting to achieve sustainable development goals. It also highlights the importance of transparency and integration in international financial reporting to better understand and present the economic, environmental, and social aspects of sustainability.

Key words: Sustainable development, financial reporting, international standards, IFRS, environmental factors, social responsibility, integration, transparency, economic stability.

Аннотация: Эта статья посвящена теме устойчивого развития и международных стандартов финансовой отчетности. В ней рассматриваются основные принципы устойчивого развития, международные системы финансовой отчетности, в частности Международные стандарты финансовой отчетности (IFRS), а также интеграция устойчивого развития с финансовой отчетностью. В статье подчеркивается необходимость учета экологических и социальных факторов в финансовой отчетности для достижения целей устойчивого развития. Также акцентируется внимание на важности прозрачности и интеграции международной финансовой отчетности для лучшего понимания и представления экономических, экологических и социальных аспектов устойчивости.

Ключевые слова: Устойчивое развитие, финансовая отчетность, международные стандарты, IFRS, экологические факторы, социальная ответственность, интеграция, прозрачность, экономическая стабильность.

KIRISH

XXI asrda global miqyosda ustuvor vazifalardan biriga aylangan masala – barqaror rivojlanishga erishish yo'lidagi izchil harakatlardir. Globallashuv jarayonining tezlashuvi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurati, iqlim o'zgarishlari, ijtimoiy tengsizliklarning kamaytirilishi hamda sanoat faoliyatining ekologik muhitga ta'sirini minimallashtirish kabi omillar zamonaviy taraqqiyotning yangi paradigmalarini shakllantirmoqda. Shu boisdan, barqaror iqtisodiy o'sishni ekologik xavfsizlik va ijtimoiy adolat bilan uyg'unlashtirish masalasi tobora dolzarblashib, barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy tamoyiliga aylangan.

Mazkur sharoitda davlatlar, korxonalar va investorlar tomonidan qabul qilinadigan strategik qarorlar haqida aniq, ishonchli va taqqoslanadigan axborot taqdim etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu talab moliyaviy hisobot yuritish amaliyotida xalqaro standartlarning rolini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bugungi kunda global axborot almashinuvi, investitsiyaviy ishonchlilik va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashning asosiy vositasi sifatida tobora keng qo'llanilmoqda.

An'anaviy moliyaviy hisobotlar asosan moliyaviy natijalarni aks ettirgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda barqaror rivojlanishning ijtimoiy va ekologik jihatlarini ham tizimli yoritishga ehtiyoj ortmoqda. Shu sababli xalqaro moliyaviy amaliyotda integratsiyalashgan hisobotlar (Integrated Reporting) va barqarorlik hisobotlari (Sustainability Reporting) kabi yangi yondashuvlar joriy etilmoqda. Ular korxonalar faoliyatini yanada ko'p



qirrali baholash, ESG (Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) ko'rsatkichlarini moliyaviy natijalar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada barqaror rivojlanish konsepsiyasining mohiyati, uning asosiy yo'nalishlari va tamoyillari chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, IFRS tizimi doirasida moliyaviy axborotning barqaror rivojlanish tamoyillari bilan bog'liq jihatlari metodik yondashuvda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada barqaror rivojlanish indikatorlarini moliyaviy hisobotlarga integratsiyalashning xalqaro tajribalari, ularning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o'rnini va bu boradagi ilg'or standartlar amaliyoti keng yoritiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston sharoitida mazkur yondashuvlarni milliy amaliyotga uyg'unlashtirish imkoniyatlari, tegishli normativ-huquqiy va institutsional baza asosida yo'lga qo'yiladigan mexanizmlar, shuningdek korxonalar darajasida axborotning shaffofligini ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu qarashlar, uzoq muddatli istiqbolda O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, global bozorlar bilan integratsiyani chuqurlashtirish hamda investorlar ishonchini oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari zamonaviy iqtisodiyotda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar moliyaviy axborotni taqdim etishda barqarorlik tamoyillarini integratsiyalash zarurligini asoslab bermoqda.

Barqaror rivojlanish tushunchasi ilk bor 1987-yilda BMTning "Bizning umumiy kelajagimiz" (*Our Common Future*) hisobotida ilgari surilgan bo'lib, unda barqaror rivojlanish "kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini kamaytirmasdan, hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish" deb ta'riflangan (*Brundtland Report*, 1987). Ushbu yondashuv keyinchalik 2015-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) orqali yanada kengaytirildi.¹[1]

Moliyaviy hisobot sohasida Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) korxonalar faoliyati haqida aniq, ishonchli va solishtiriladigan ma'lumotlarni taqdim etishga xizmat qiladi. Nobes va Parker (2008) o'zining "*Comparative International Accounting*" nomli asarida xalqaro standartlarni joriy etish moliyaviy axborotning shaffofligini oshirishi va investorlar uchun tavakkalchilikni kamaytirishini asoslagan² [2].

Barqarorlik axborotini moliyaviy hisobotlarga integratsiya qilish g'oyasi Gray, Owen va Adams (2014) tomonidan chuqur tahlil qilingan. Ular "*Social and Environmental Accounting*" nomli asarlarida korxona faoliyatining ekologik va ijtimoiy jihatlarni ochiqlash uning ijtimoiy mas'uliyatini ifodalaydi, degan xulosaga kelgan. Bu yondashuv barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi³ [3].

Shuningdek, Eccles va Krzus (2010) tomonidan yozilgan "*One Report: Integrated Reporting for a Sustainable Strategy*" asarida korxonalar uchun moliyaviy va nohissiy ko'rsatkichlarni birlashtirgan holda hisobot taqdim etish – ya'ni integratsiyalashgan hisobot yuritish konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Mualliflar bu yondashuv orqali manfaatdor tomonlar uchun hisobotlarning dolzarbligi va tahliliy imkoniyatlarini oshirish mumkinligini ta'kidlaydilar⁴ [4].

Barqarorlik bo'yicha xalqaro miqyosda eng ko'p qo'llaniladigan standartlardan biri – *Global Reporting Initiative* (GRI) standartlaridir. Ushbu standartlar korxonalarning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) faoliyatini ochiqlashga yo'naltirilgan bo'lib, ular orqali barqarorlik hisobotlari jahon tajribasida keng qo'llanmoqda (GRI, 2021)⁵[5].

O'zbekiston kontekstida esa bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar endilikda rivojlanib bormoqda. Jumladan, Xudoyberganov A.X. (2020) o'z tadqiqotlarida O'zbekiston korxonalarida xalqaro hisobot standartlarini joriy etishning dolzarbligi, bu jarayonda barqarorlik mezonlarini hisobga olish zarurligi haqida fikr bildirgan. Shuningdek, Davlat statistika qo'mitasi va Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilayotgan milliy hisobotlarda barqaror rivojlanish indikatorlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda⁶ [6].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanish tamoyillarini moliyaviy hisobot tizimlariga integratsiyalash zamonaviy korxonalarning nafaqat iqtisodiy samaradorligini oshiradi, balki ularning ijtimoiy va ekologik mas'uliyatini ham namoyon etadi. Bu esa manfaatdor tomonlar ishonchini kuchaytiradi va barqaror boshqaruv asoslarini mustahkamlaydi.

1 Brundtland Report. (1987). *Our Common Future*. United Nations.

2 Nobes, C., & Parker, R. (2008). *Comparative International Accounting*. Pearson Education.

3 Gray, R., Owen, D., & Adams, C. (2014). *Social and Environmental Accounting*. Routledge.

4 Eccles, R. G., & Krzus, M. P. (2010). *One Report: Integrated Reporting for a Sustainable Strategy*. Wiley.

5 Global Reporting Initiative (GRI). (2021). *GRI Standards*. www.globalreporting.org

6 Xudoyberganov A.X. (2020). Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish va barqarorlik indikatorlari. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim jurnali.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada barqaror taraqqiyot va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari o'rtasidagi integratsiyaviy jarayonlarni aniqlash, mavjud tajriba namunalarini tahlil qilish hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish asosiy maqsad qilib belgilandi. Tadqiqotda sifat jihatdan chuqur (qualitative) va qisman miqdoriy (quantitative) tahliliy yondashuvlardan foydalanildi.

Barqaror taraqqiyot, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), barqarorlik hisobotlari (*sustainability reporting*), integratsiyalashgan hisobot (*integrated reporting*) kabi mavzularda xalqaro va mahalliy miqyosdagi ilmiy adabiyotlar, maqolalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek BMT, GRI kabi nufuzli tashkilotlarning rasmiy nashrlari chuqur tahlil qilindi. Ushbu manbalar asosida mavzuning nazariy asoslari va ilg'or xalqaro amaliyotlar umumlashtirib berildi.

Tadqiqot doirasida xalqaro va milliy tajribalarning qiyosiy tahlili o'tkazilib, moliyaviy hisobot tuzishda barqarorlik ko'rsatkichlarini kiritish amaliyoti qanday shakllangani o'rganildi. Jumladan, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Janubiy Koreya va O'zbekiston misolida barqaror taraqqiyot bilan moliyaviy axborot o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik darajasi solishtirildi.

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish orqali barqaror taraqqiyotning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy yo'nalishlariga qanday ta'sir ko'rsatilishi chuqur tahlil qilindi. Bu orqali maqolada ilgari surilgan nazariy g'oyalar ilmiy asoslar bilan mustahkamlandi.

Soha mutaxassislari: iqtisodchilar, buxgalteriya sohasi vakillari va moliyaviy tahlilchilar fikrlari asosida mavjud vaziyatga baho berilib, ilgari surilgan takliflarning amaliyotda qo'llanish imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar

Ushbu tadqiqot doirasida barqaror rivojlanish tamoyillari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning real sektor amaliyotiga integratsiyalashuvi darajasi, shuningdek, O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi asosida qiyosiy tahlillar olib borildi. Tahlillar natijasida istiqbolli yo'nalishlar aniqlanib, ularning asosida tizimli takliflar ishlab chiqildi.

Dastlabki tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi bosqichda moliyaviy axborotni taqdim etish an'anaviy ko'rsatkichlar doirasidan chiqib, barqarorlikka oid indikatorlar bilan boyitilmoqda. Ayniqsa, manfaatdor tomonlarning – investorlar, davlat organlari va jamoatchilikning – kompaniyalar faoliyati bo'yicha ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyoji ushbu yo'nalishda yangi uslublarni joriy qilish zaruratini kuchaytirmoqda.

Xalqaro amaliyotda bu jarayon bosqichma-bosqich tizimlashmoqda. Jumladan, GRI (Global Reporting Initiative) standartlariga asoslangan hisobotlar soni ortib borayotgani, 2023-yilga kelib, 10 000 dan ortiq kompaniya tomonidan qo'llanilgani ushbu yo'nalishda global yondashuvning shakllanganini ko'rsatadi. IFRS Foundation tomonidan tashkil etilgan ISSB (International Sustainability Standards Board) orqali barqarorlik hisobotlarini yagona formatga keltirish ishlari jadal olib borilmoqda. KPMG tomonidan o'tkazilgan "Survey of Sustainability Reporting 2022" tadqiqoti natijalariga ko'ra, dunyoning yetakchi kompaniyalari orasida ushbu amaliyotlar keng ommalashgan: 250 ta yirik kompaniyaning 96 foizi barqarorlik hisobotlarini taqdim etmoqda.

O'zbekiston amaliyoti ham bosqichma-bosqich ushbu tendensiyaga moslashmoqda. Hozirgi kunda korxonalar, xususan yirik davlat tashkilotlari va tijorat banklari, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) ga o'tish yo'lida sezilarli qadamlar tashlamoqda. Kelgusida esa ESG indikatorlarini buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarga kengroq qamrovda integratsiyalash bo'yicha institutsional va texnik salohiyatni mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Yangi avlod mutaxassislari tayyorlash, statistik axborotlarni zamonaviy ko'rsatkichlar bilan uyg'unlashtirish va elektron hisobot tizimlarini joriy qilish orqali ushbu jarayonni bosqichma-bosqich optimallashtirish kutilmoqda.

Shuningdek, Davlat statistika qo'mitasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan barqaror rivojlanish indikatorlarini milliy statistik hisobdorlikka joriy etish yo'lida huquqiy va metodologik asoslar shakllanmoqda. Bu esa ESG axborotlarining tizimli aks ettirilishiga zamin yaratadi.

Qiyosiy tahlillar asosida aniqlangan ilg'or xorijiy tajribalar O'zbekiston uchun yo'l xaritasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Jumladan, Yevropa Ittifoqida 500 nafardan ortiq xodimga ega korxonalar uchun barqarorlik hisobotlarini majburiy yuritish tajribasi, AQShda esa ESG ma'lumotlarini investitsiyaviy baholashda asosiy mezon sifatida qo'llanilishi O'zbekistonda ham mazkur ko'rsatkichlarni hisobot tizimiga integratsiyalash zaruratini tasdiqlaydi. Janubiy Koreyada 2025-yildan boshlab yirik korxonalar uchun integratsiyalashgan hisobot yuritish majburiyligi joriy etilishi esa uzoq muddatli strategik yondashuvni aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilanmoqda: ESG ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobotlarga to'liq integratsiyalash uchun kompleks metodik yondashuv zarur. Bu borada xalqaro tajribani chuqur o'rganish, mahalliy sharoitga moslashtirish, shuningdek, ESG indikatorlarini baholovchi maxsus mezonlar tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Kadrlar salohiyatini oshirish, barqarorlikni



o'rgatuvchi maxsus o'quv kurslari va professional rivojlanish dasturlarini yo'lga qo'yish bozor ishtirokchilarining tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar – soliq yengilliklari, grant dasturlari va reyting tizimlari orqali barqarorlik hisobotini yuritayotgan korxonalarga rag'batlar berish orqali ushbu sohani rivojlantirishga keng zamin yaratiladi. Uzoq muddatli istiqbolda bu chora-tadbirlar nafaqat hisobot sifatini, balki O'zbekistonning xalqaro investitsiyaviy reytinglaridagi o'rnini ham mustahkamlashi kutilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari o'rtasidagi bog'liqlikni va ularning amaliyotdagi integratsiyasi⁷.

Xalqaro Standartlar	Moliyaviy Hisobotlar	Barqarorlik Indikatori (ESG)	Integratsiya Holati
IFRS (International Financial Reporting Standards)	Moliyaviy holat, daromadlar, xarajatlar	Ko'p hollarda faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar	Asosan moliyaviy ko'rsatkichlar asosida
GRI (Global Reporting Initiative)	Moliyaviy ko'rsatkichlar bilan aloqasiz	Atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat, boshqaruv ko'rsatkichlari	Barqarorlik ma'lumotlari alohida hisoblanadi
ISSB (International Sustainability Standards Board)	Moliyaviy va barqarorlik hisobotlari	ESG ko'rsatkichlari integratsiyalashgan	Yangi standartlar, barqarorlik hisobotlarini kiritish davom etmoqda
O'zbekiston Milliy Buxgalteriya Standartlari (NBS)	Faoliyat natijalari, buxgalteriya ma'lumotlari	Barqarorlik bo'yicha ko'rsatkichlar kam	Barqarorlik ko'rsatkichlari alohida ko'rsatilmaydi, integratsiya jarayoni boshlanmoqda

Moliyaviy hisobotlarning asosiy vazifasi korxona faoliyatining moliyaviy natijalarini aniqlik bilan yoritishdan iborat bo'lsa-da, bugungi global iqtisodiy tendensiyalar uni yangi axborot bloklari bilan to'ldirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, ESG ko'rsatkichlarining bu tizimga qo'shimcha axborot manbasi sifatida kiritilishi hisobdorlikning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tganini anglatadi. Ayni paytda ushbu indikatorlar moliyaviy hisobotlarning izoh qismida yoki alohida barqarorlik hisobotlari ko'rinishida taqdim etilmoqda. Bu esa kompaniyaning nafaqat moliyaviy barqarorligi, balki ekologik va ijtimoiy mas'uliyatini ham tizimli tarzda yoritishga imkon bermoqda.

So'nggi yillarda shakllanayotgan xalqaro metodik yondashuvlar hisobot yuritish amaliyotini kompleks va integratsiyalashgan shaklda ko'rib chiqishni nazarda tutmoqda. Bu yondashuv orqali korxonalar o'zlarining moliyaviy natijalari bilan birga, barqarorlik bo'yicha majburiyatlarini ham yagona struktura doirasida bayon etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. O'zbekiston moliyaviy hisobot yuritish bo'yicha milliy tajribasida an'anaviy ko'rsatkichlar ustuvor o'rin egallasa-da, hozirgi vaqtda ESG indikatorlarini tizimlashtirish jarayoni ham izchil rivojlanmoqda. Kelgusida bu jarayonni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot doirasida o'rganilgan ilmiy manbalar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida barqaror rivojlanish tamoyillarini moliyaviy hisobotga integratsiyalash bo'yicha mavjud holat va istiqbollar aniqlab olindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy va barqarorlik ko'rsatkichlarini birlashtirish korxonalarning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy faoliyatini yanada puxta baholash imkonini beradi. Bugungi kunda ISSB, GRI va boshqa xalqaro tuzilmalar tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar orqali ESG ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobotlar bilan uyg'unlashtirish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Bu esa manfaatdor tomonlar uchun axborotning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

O'zbekiston sharoitida moliyaviy hisobotlar milliy buxgalteriya standartlariga asoslangan holda yuritilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich moslashish hamda ESG ko'rsatkichlarini hisobotlarga joriy etish yo'lida muhim qadamlar tashlanmoqda. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarga asoslangan holda, kompaniyalarning ijtimoiy va ekologik mas'uliyatini ochiq yoritish orqali investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, jahon bozorida raqobatbardosh imijni shakllantirish mumkin.

Kelgusi bosqichda moliyaviy va barqarorlik hisobotlarini integratsiyalash bo'yicha bir qator takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, milliy standartlarni xalqaro talablar asosida takomillashtirish, ESG ko'rsatkichlarini huquqiy va uslubiy jihatdan rasmiylashtirish, shuningdek, hisobot yurituvchilarning salohiyatini oshirish bo'yicha maxsus



o'quv va trening dasturlarini joriy etish nazarda tutilmoqda. Bu jarayon dastlab sinov loyihalari orqali boshlangan holda, bosqichma-bosqich mamlakat miqyosida kengaytirilishi mumkin.

Korxonalarni ushbu tizimga jalb qilishda rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlar – soliq yengilliklari, grantlar va reyting tizimlari muhim rol o'ynaydi. Hisobotlar sifatini oshirish maqsadida esa mustaqil audit, innovatsion texnologiyalar va raqamli monitoring vositalaridan foydalanish zarur.

Mazkur takliflar xalqaro tajribalar asosida shakllangan bo'lib, ularning O'zbekiston korxonalarida qo'llanilishi mamlakat iqtisodiyotida yuqori samaradorlik, ekologik mas'uliyat va ijtimoiy barqarorlik o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi. Natijada, korxonalar nafaqat ichki bozorda, balki global raqobat maydonida ham o'z o'rnini mustahkamlashi mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Brundtland Report. (1987). Our Common Future. United Nations.
2. Nobes, C., & Parker, R. (2008). Comparative International Accounting. Pearson Education.
3. Gray, R., Owen, D., & Adams, C. (2014). Social and Environmental Accounting. Routledge.
4. Eccles, R. G., & Krzus, M. P. (2010). One Report: Integrated Reporting for a Sustainable Strategy. Wiley.
5. Global Reporting Initiative (GRI). (2021). GRI Standards. www.globalreporting.org
6. Xudoyberganov A.X. (2020). Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish va barqarorlik indikatorlari. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim jurnali.
7. Global Reporting Initiative (GRI, 2021) – "GRI Standards"www.globalreporting.org
8. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN, 2015) – "Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)".
9. IFRS Foundation (2021) – "Sustainability Disclosure Standards (ISSB tomonidan ishlab chiqilgan)".
10. KPMG (2022) – "Survey of Sustainability Reporting" (Global kompaniyalarning barqarorlik hisobotlari statistikasi).
11. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi hujjatlari – Milliy hisobot standartlari va barqaror rivojlanish indikatorlari bo'yicha ishlanmalar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
